



**“OLIIY TA’LIM MAZMUNIGA  
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”  
mavzusida ilmiy-nazariy anjuman  
MATERIALLARI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIK TA'LIM FAKULTETI**

**PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

**“OLY TA'LIM MAZMUNIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”**  
mavzusida ilmiy-nazariy anjuman

**MATERIALLARI**

**2023 yil 27 may**

**BUXORO-2023**

**MA'NAVIY ISLOHOTLARNING BO'LAJAK PEDAGOGLARDA  
MAFKURAVIY IMMUNITETNI TARBİYALASHDAGI O'RNI**

**O.R. Ortiqov**

**BuxDU pedagogika kafedrası o'qituvchisi**

Bugungi kunda ma'naviy islohotlar mazmuni oliy ta'limda tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarni tarbiyalash va kamol topishi kun tartibidagi dolzarb masaladir. Yangi O'zbekiston sharoitida huquqiy-demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar markazida shaxs va uning barkamol qiyofasi o'z ifodasini topgan. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning ma'naviy – axloqiy va intellektual salohiyatini jahon andozalariga mos tarzda yuksaltirish, ayniqsa, bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarni har tomonlama barkamol insonlar bo'lib yetishishlari bosqichma – bosqich amalga oshirilmoqda. Mazkur masalada mamlakatimizda qabul qilnayotgan qonunlar, farmonlar, qarorlar qabul qilinishi, belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qilayotganligi barcha quvontiradi.

Jumladan, ta'limning hozirgi, zamon fan – texnika taraqqiyoti, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikda rivojlanishi, inson kapitaliga bo'lgan munosabatning o'zgarishi o'z navbatida ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqishni talab etmoqda mazkur indikatorlar “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiya” sida quyidagicha belgilangan.

a) tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to'g'ri tashkil etish, go'daklar va bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash;

b) yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarini bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

c) homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

d) aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

e) ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilyotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyokarashni shakllantirish;

f) uzluksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo'lga qo'yish[4].

Demak, uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining mazmuni ham inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan salohiyatini yanada yuksaltirish, odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjat sanaladi. Darhaqiqat, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yuqotmaydigan yana bir masala, bu - farandalarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakkam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir". [6,123b]

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar siyosatning ustuvor yo'nalishi bo'lgani, mafkuraviy tahdid va axborot xurujlari ko'payib borayotgani, odamlar ongi va qalbini egallash yo'lidagi kurash jarayonlari kuchaygani uchun hayotning barcha jabhalari, ishlab chiqarishning hamma sohalari, aholining hamma qatlamlari orasida, ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy sohada jadal ishlarni amalga oshirish, targ'ibotchi oldidagi eng muhim vazifa hisoblanadi. Yoshlar tarbiyasi, sport, intellektual salohiyatni oshirish, kitob o'qish, mutolaa madaniyatini shakllantirish, yoshlarni ilmiy, bilimli, dunyoqarashlarini keng bo'lishi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishi va boshqalar davlatimiz siyosatining asosiy masalalari sifatida qaralayotganligi sir emas. Zero, yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev aytib o'tganlaridek; "Yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, "ommaviy madaniyat" va boshqa yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish"[3] masalalari hozirgi kunning eng muhim strategik vazifalaridandir.

Ma'naviy islohotlarning mazmuni, jumladan uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining mohiyati yoshlarimizda, bo'lajak pedagog-kadrlarimizda mafkuraviy immunitetning tarkibiy sifatlarni shakllantirish, yuksak salohiyatli mutaxassis bo'lib yetishishga, adolat haqidagi qarashlar jamiyatning sog'lom ma'naviy-ahloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qiluvchi tarixiy manbalar Avesto, Kultegin bitiktoshi, muqaddas kitobimiz "Qur'on karim" va buyuk ajdodlarimiz Unsur Ul Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Farobiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin

Kubro, Abu Ali ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Abu Homid G'azzoliy va boshqalarning ibratli o'gitlarini, boy ilmiy meroslarini o'rganishga ko'maklashadi.

Xulosa qilib aytganda ma'naviy islohotlarning mazmuni turli millat va etnik birliklarni yagona mafkura atrofida birlashtirish tarixiy zaruriyat ekanligini, o'z-o'zini anglash, milliy g'urur va iftixonning namoyon bo'lish xususiyatlari mafkuraviy immunitetning ozuqlantiruvchi mafkuraning bosh g'oyasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish va uni amalga oshirishning asosiy g'oyalari yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikengliklarda namoyon bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T.: O'zbekiston. 2023 yil 1 may.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni -T.: “O'zbekiston”, 2020 yil 23 sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106 son Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-sonli Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. 31.12.2019 yil <https://lex.uz/ru/docs/-4676839>
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: “O'zbekiston”, 2017 y., - 592 b
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz T.: O'zbekiston, 2017. 488 b.
7. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nuqti (<https://www.gazeta.uz>)
8. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya – T.; Fan. 1995y. 118b.
9. Ortiqov O. R. GLOBALLASHUV JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 160-165.
10. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – C. 1130-1135.
11. Ortiqov O. R. TALABALAR MA'NAVIY AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA “QOBUSNOMA” ASARIDAN FOYDALANISH //Conferencea. – 2023. – C. 1-5.

#### **TALABALAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRINSHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**

**Ismatov Shuxrat Ubayduvich**

<b>M.B. Qambarov.</b> BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI.....	105
<b>F.F. Narzulloyeva.</b> YOSHLARDA IJOD VA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM YO'NALISHLARI.....	107
<b>M.Yo.Umarova.</b> XALQ QO'SHIQLARINING BOLALAR TARBIYASIDAGI O'RNI.....	109
<b>M.Yo.Umarova. F.F. Raximova.</b> TASAVVUF TA'LIMOTIDA USTOZ-SHOGIRDAN'ANALARI.....	133
<b>B.B. Xodjiyev.</b> OLIY TA'LIM O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK NAZOKATI VA AXLOQINING IJODIY KO'RINISHI.....	118
<b>A.T. Gulboyev.</b> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKAVIY AMALIYOTLARNI O'TKAZISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	121
<b>H.R. Hasanov, A.B. Barotboyev</b> MUSIQA DARSLARIDA O'ZBEK XALQINING MUSIQIY MEROSIDAN FAYDALANISH.....	124
<b>M.N. Amonov.</b> TALABALARNI IJTIMOY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	126
<b>Q.F. Abdullayev.</b> ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ВОСПИТАНИЯ И ОБРАЗОВАНИЯ ПРЕДКОВ.....	128
<b>4-ShO'BA. OLIY TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY VA TARBIYAVIY ISHLAR TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH MEKANIZIMLARI.....</b>	<b>132</b>
<b>M.O. Ochilova.</b> OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	132
<b>G.G. Xabibova.</b> TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHGA TEXNOLOGIK YONDASHUV VA UNI LOYIHALASH.....	134
<b>G.G. Xabibova, M.E. Mirzayeva.</b> TALABA YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY ODATLARINI TARBIYALASH VAZIFALARI.....	139
<b>M.N. Usmanova.</b> ONTOGENEZNING TURLI DAVRLARIDA IJTIMOY FOBIYA KO'RINISHLARINING NAMOYON ETILISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	142
<b>N.F. Mexmonova.</b> YOSHLARDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI.....	146
<b>Yu.Z. Saidova.</b> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR.....	148
<b>Sh.K.O'rinov.</b> MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI VA USULLARI.....	150
<b>O.R. Ortiqov.</b> MA'NAVIY ISLOHOTLAR OLIY TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TARBIYALASH MANBAI.....	154